

## O`ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHIGA OID AYRIM SHARHLAR

**Sadikova Renata Shamishevna**

*O'zbekiston Milliy universiteti magistranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston tarixi davlat muzeyining dastlabki yuzaga kelish shart-sharoitlari, dastlabki namunalar, detallarning yig'ilishi kabilar ko'rib chiqiladi. Hozirgi vaqtga kelib muzeyning eng noyob eksponatlari deb hisoblanayotgan arxeologik topilmalarning ba'zilari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi a'zolarining faoliyatiga qisman to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Muzey, arxeologiya, topilma, Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi, kolleksiya, amulet terrakota, ostadon, eksponat, tanga.

### KIRISH

Muzeylar xalqlarning o'tmishi bilan kelajagini bog'lab turuvchi ko'prikdir. Yurtimizning uzoq o'tmishidagi osori atiqalari, jumladan arxeologik topilmalarning bugungi kungacha yetib kelishida va kelajak avlodga munosib yetkazishda O'zbekiston tarixi davlat muzeyining o'rni beqiyos. O'zbekiston tarixi davlat muzeyi o'z fondlarida O'rta Osiyoning birinchi darajali ilmiy ahamiyatga ega va dunyoga mashhur bo'lgan yuz minglab moddiy va ma'naviy yodgorliklaridan topilgan arxeologik, numizmatik, etnografik topilmalar hamda arxiv xujjatlarini saqlab keladi. Ushbu boy merosning tarkibiy qismi bugungi kunda 70 mingdan ziyod ashyoni o'z ichiga olgan arxeologiya fondida saqlanib kelayotgan arxeologik topilmalardan iboratdir.

### ADABIYOTLAR SHARHI

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida O'zbekiston tarixi davlat muzeyi arxeologiya fondi shakllantirilishida muzey tashkil etilishi oldidan (1876 y.) unga asos solgan xususiy shaxslar qo'lida to'plangan, shuningdek, ba'zi muassasalarda, jumladan, Tabiatshunoslik, antropologiya va etnografiya havaskorlari jamiyati Turkiston bo'limida saqlanayotgan ashyolar jamlangan edi. Muzeyning arxeologiya fondiga qisman yoki to'liq kelib tushgan eng yirik arxeologik to'plamlar asosan XIX asrning 70–90 yillarida shakllantirilgan. Shu o'rinda ushbu xayrli ishlarning bajarilishida xizmati singan Ye.F. Kal, A.D. Kun, I.T. Poslavskiy, A.I. Dobrosmislov, I.A. Kastane, A.A. Polovsev, S.F. Nikolyai kabi yetuk olimlarning nomlarini eslab etish o'rinlidir. Arxeologik topilmalar orasida

1875 yilda havaskor-arxeolog, o'qituvchi D.M. Grameniskiy tomonidan qadimgi Ulkan-To'ytepadan topilgan topilmalarda turli ko'rinishdagi loydan yasalgan idishlar, chiroqlar, metall eritilganda qoldirilgan qotishma, temir xalqalar, oynadan yasalgan anjom bo'laklari, simobko'zacha va boshqalar mavjud. N.A. Maevning ta'kidlashicha, P.E. Kurkovskiyning taklifi bilan qadimgi Ulkan-To'ytepa topilmalari Toshkent muzeyiga topshirilgan [1].

1883 yil Turkiston general-gubernatori general M.G. Cherniyaevning ko'rsatmasi bilan Samarqand viloyati muzeyining arxeologiya va numizmatika bo'limlaridagi kolleksiyalarning barchasi V.V. Krestovskiy tomonidan Toshkent xalq muzeyiga topshiriladi. Arxeologik topilmalar bilan birgalikda shayx Abu Zakariyo va uning o'g'li Yahyoga tegishli Darg'om kanali bo'yidagi Varagser qishlog'idan topilgan XIII asrga oid qayroq (qabrtosh) ham keltirilgan [2, 8, 9].

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

1883 yil muzeyga keltirilgan buyumlar orasida tashqi tomoni qubbali, kichkina hovoncha ham mavjud. Toshkentda o'tkazilgan arxeologik tekshiruvlar natijasida 3-Turkiston batalyoni kazarmasi yaqinida qorin qismining ikki tomonida hayvonning boshini sur'ati tushirilgan va epigrafik naqshli kichkinahovoncha topilgan.

1884 yilda muzey ekspozitsiyasining arxeologiya bo'limiga qo'yilgan 20 ta arxeologik topilmalar orasida To'ytepa, Shohruhiya, Issiqko'l ko'li, Afrosiyob va Samarqand arxitekturasiga oid topilmalar bo'lgan [3]. Arxeologiya fondida arxeologik va numizmatik topilmalar bilan birgalikda Turkiston hududidan topilgan xristanlik diniga oid terrakotalar ham bor. U 1885 yil Avliyoota uezdi Qumariq pochta stansiyasi yaqinidagi ariqni qazish vaqtida bo'ynida misdan yasalgan ikkita xoch osilgan but topilgan [4].

Bu paytga kelib muzeyga dastlabki ossuariy ham keltirilgan. U 1886 yil oldingi pochta stansiyasi bo'lgan Niyozboshida (Toshkentdan Samarqandga tomon harakatlenganda 22 chaqirim uzoqlikda) nafaqaga chiqqan askarning hovlisidan topilgan. Shu yilning o'zida Toshkentdan ikki chaqirim janubiy sharqda (Nikolskiy) ham topilgan. Undaodam tasviri tushirilgan bo'lib ossuariyning bo'laklari saqlanib qolgan. Topilma haqida "Turkiston vedomosti" gazetasida yozilgan. Ossuariy bilan birga boshqa ashyolar, jumladan, qovoqsimon ko'rinishdagi, tutqichli (inv №7/53) ko'za hamda 7 ta qadimgi topilmatopilgan.

Grafina P.S. Uvarovaning Yaroslov shahrida o'tkazilgan VII arxeologiya sezdi uchun tayyorlagan hisobotida Toshkent muzeyi arxeologiya fondining holati haqidagi ba'zi qiziqarli ma'lumotlar uchraydi. Uning ma'lumotlariga ko'ra o'sha paytda arxeologiya fondi buyumlarning barchasi juda noyob

xarakterga ega bo'lib, birgina "qadimgi dunyo" bo'limida 164 ta ashyo va 1018 turli xildagi tangalar saqlangan. Ular orasida Sirdaryo qirg'oqlarida joylashgan Namangan uezdiga qarashli Axsikentdan topilgan oltin braslet, 4 ta sirg'a, arab alifbosida yozuvi bo'lgan bir nechta uzuk, chayon va qo'ng'iz rasmi tushirilgan qimmatbaho yaltiroq tosh va yarim qimmatbaho toshdan ishlangan marjon bor. Ushbu topilmalar ichida Toshkentdan topilgan qabrtosh (qayroq), Afrosiyobdan buralgan kiyik shoxi tasvirlangan bronza braslet, oyna va loydan yasalgan idish qoldiqlari, terrakota haykalchalari, chiroqlar topilgan. Axsikentdan bronza idish, Toshkentdan ikkita bronza chiroq, Avliota uezdining Merke hududidan tosh "balbal" va boshqa topilmalar bo'lgan [5, 6].

1891 yilda muzeyga juda katta kolleksiya qabul qilingan. Uning tarkibida Toshkent, Samarqand, Kerki, Termizdan qazish ishlarida topilgan tangalar, qo'lda yasalgan sopol va metall taqinchoqlar, sotib olingan antropologik materiallar bo'lgan.

Tinib-tinchimas O'rta Osiyo bo'yicha tadqiqot olib borgan harbiy injener I.T. Poslovskiy tomonidan tadqiqotlari natijasida to'plangan arxeologik topilmalar 1914 yili, uning vafotidan so'ng Sharqshunoslik institutiga undan so'ng Toshkent muzeyiga topshirilgan. Topshirilgan ashyolar orasida terrakota haykalchasi, sfero-konusli idishlar mavjud [6].

Shuningdek, ushbu o'rinda ko'plab tangalar, arxeologik ashyolar va qo'lyozmalarni to'plagan savdogar Akram Asqarov (1891 yilda vafot etgan) nomini ham zikr etish joiz. U N.I. Veselovskiy tomonidan Turkiston bo'ylab tashkil etilgan arxeologik qazishishlarida faol ishtirok etgan. 1887 yilda Rus arxeologiya jamiyati Asqarovni "Arxeologiya rivojiga qo'shgan hissasi uchun" kichikkumush medali bilan taqdirlagan [7].

Osori-atiqalarga qiziquvchi va ularni to'plovchi mahalliy aholi vakillaridan bo'lgan, e'tiborli shaxslardan yana biri samarqandlik savdogar Mirza Abdulla Buxoriy edi. Arxeologiya fondi muzeyining mis o'ymakorligi buyumlari kolleksiyasida unga tegishli, orqa tomoniga "Mirza Buxoriy to'plamidan" deb yozilgan bronza patnis (inv. № 188/81) saqlanadi. Bundan tashqari Buxorodan topilgan 3 ta Baqtriya kumush tangasi, 7 ta Afrosiyobdan topilgan Baqtriya kumush tangasi, kufiy yozuvi tushirilgan 3 ta kumush tanga (Afrosiyob), Kushon podsholigi hukmdori Vasudeva tasviri tushirilgan 2 ta tanga, 15 ta hind yoki qadimgi fors saltanatiga tegishli va 4 ta arab tangasi (Afrosiyob), 5 filla uzuk, 31 shtamp va ko'plab qadimgi buyumlar mavjud [8].

Xuddi shuningdek, mahalliy o'lkashunos, havaskor-arxeologlar safiga to'ytepalik qadimgi ashyolar bilan savdo qiluvchi Sulton Primqulov nomini ham qo'shish mumkin. 1884 yil To'ytepada qazishishlar boshlangan. Qazish

paytida bino qurilishida ishlatilgan lekin yong'in sodir bo'lganda kuyib ketgan g'ishtlar va ustunlar topilgan. 1884 yil Primqulov 36 dona shu jumladan, 7 dona kichkinatanga, 2 ta metal va 1 ta toshdan ishlangan pechat, qayrilma qoziq, qo'ng'iroqcha, bir qismi singan, suyakdan yasalgan qoshiq, oynadan ishlangan siyohdon, munchoq, chiroq va boshqa topilgan topilmalarni muzeyga topshirgan [9,8].

XIX asrning 90 yillarida Toshkent muzeyining arxeologiya fondini shakllantirish ishlari jadallashgan. Xususan, 1890 yillarning boshida topograf M.A. Kirxgof tomonidan Toshkent muzeyining arxeologiya bo'limiga ikkita tosh bolg'a taqdim etilgan. 1893 yil D.I. Evarnitskiy muzeyga Afrosiyobdan topilgan qabrtoshning singan bo'lagini sovg'a qilgan.

1893–1894 yillarda O'rta Osiyoga tashrif buyurgan Bartold V.V. shunday xotirlaydi "Toshkent muzeyida Issiqko'l atrofidan topilgan, loydan ishlanib, 12 ta geomerik shakl tushurilgan vaza saqlanmoqda" [10].

Toshkent shahrida o'lkaning tarixini o'rganishga qiziqqan tashabbuskor insonlarni birlashtiruvchi Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi (TAHT) 1895 yilning 11 dekabrda tashkil etildi. To'garak raisi Turkiston general-gubernatori bo'lgan. To'garak a'zolar asosan, ma'muriy boshqarma vakillari, amaldorlar, harbiylar, aloqachilar, direktorlar va o'qituvchilardan tashkil topgan. Yigirma yildan ko'proq vaqt mobaynida ushbu to'garak a'zolari o'lkada arxeologik qidirish va qazish ishlarini olib borishdi. Turli ashyolarni to'plashdi, o'lkadagi qadimiy yodgorliklarni o'rganishdi. Mazkur to'garakda N.P. Smirnov, I.T. Poslavskiy, V.A. Kallauer, M.S. Andreev, Ye.T. Smirnov, N.G. Malliskiy, A.A. Divaev, N.N. Pantusov, A.A. Semyonov va boshqalar faol ishtirok etdilar [11, 10]. To'plash va qazish natijasida to'plangan arxeologik va numizmatik topilmalar TAHT a'zolari tomonidan topshirilgan. 1896 yil 3 iyulda to'garak a'zolarining yig'ilishida kutubxona va muzey kolleksiyalarini saqlash uchun hokimiyatdan joy so'rash masalasi ko'riladi. 1896 yil 25 oktabrda Turkiston general-gubernatorligi tomonidan "oquy"dan 2 ta katta xona ajratilishi to'g'risidagi qaror chiqariladi. 1897 yildamuzeyning arxeologiya va numizmatika fondida saqlanayotgan topilmalar miqdori 1345 ta buyumlar va 2017 ta tangalarga yetadi [12, 9].

1899 yilning 4 noyabrda to'garak a'zolari o'z kolleksiyalarini Toshkent xalq muzeyi arxeologiya bo'limiga topshirdilar. Ashyolar orasida 1893 yoki 1894 yilda Qo'qon uezdining So'x qishlog'i fuqarolari tomonidan yerga ishlov berishchog'ida topilgan va G.S. Batirov tomonidan Toshkent muzeyiga tortiq qilingan ikki (qo'sh) ilon ko'rinishidagi tumor-haykalcha ham bor. Olimlar ushbu nodir topilma bronza davriga oid bo'lib, sanasi miloddan avvalgi 2 mingyillikka oid ekanini aniqlaganlar. Hozirgi kunda

ushbu noyob topilma 207 sonli kolleksiyaga kiritilib saqlanmoqda. M.E. Voronsning fikricha ushbu noyob topilmaning yoshi bronza davrining oxiri (miloddan avvalgi II mingyillik ikkinchi yarmi) ga oid. Tumor-burama, rangi ko'k-qora tusli, qalinligi 5 millimetr va uzunligi 27 sm. Tarkibiminerallardan tashkil topgan. Ilonlarning tanasi bo'rtib chiqqan. Pastki qismi to'rtburchak shaklda bo'lib ikkita ilon bir biriga qarab turibdi. Og'zi ochiq va burun teshiklari kichkina konussimon, ko'zlari ichkariga chuqurlashgan bo'lib, ko'zlarining diametri 1 sm.

Muzeyga topshirilgan materiallar orasida Chirchiq daryosining yuqori qismi, Toshkent uezdiga qarashli Chimboy qishlog'i yaqinidan tasodifan topilgan xazina tarkibida bo'lgan bronza buyumlarni alohida tilga olish mumkin. Ushbu xazina 1898 yilning may oyida oltin izlovchi S. Nikolyaning qidiruv guruhi ishchisi tomonidan topilgan. Xazinada to'rtta ashyo: yaproqsimon shakldagi pichoq, qalpoqchalini nato'g'nag'ich, osmabaldoqli bolta va bronza yombi bo'lgan. Bronza pichoq bargsimon shaklda, qalpoqchali ninato'g'nog'ich dumaloq va bir tomoni qavariq shaklda, osmabaldoqli bolg'ashaksiz, yombi quyma shakldadir. Topilmalar sanasi miloddan avvalgi 3 – 2 mingyillik boshiga to'g'ri keladi.

TAHT muzeyidan Namangan viloyatining Bog'ish qishlog'idan 1895 yilda topilgan, 3 – 2 mingyillikka oid ikki uchi o'tkir bronza cho'kich va yana ikkita Namangan viloyatidan topilgan kelt boltalari ham kelib tushgan. Boltalarning birinchisi 259a/22 kolleksiyada yashirin tiqinli kelt bolg'a saqlanayotgan bo'lib, u hozirgi Namangan viloyati hududidan 1895 yilda topilgan. Uning yoshi miloddan avvalgi VII-VI asrlar. Ikkinchisi ham bronza bolg'a bo'lib, u kelt tipida, yon tomon quloqlari bolg'aning sopiga yelimgan. Davriy sanasi miloddan avvalgi II mingyillikka tegishli ekanligi aniqlangan.

To'garak a'zolari tomonidan taqdim etilgan topilmalar orasida muhimlaridan yana biri XI–XII asrlarga oid chiroq ham bo'lib, u dumaloq, suyuqlikni saqlashga mo'ljallangan, bundan tashqari uning uchta burunli ekanligi bir paytda uchta pilikni yoqish imkonini bergan. Uning tashqi tomonida va burun qismida yaxshiliklarni ifoda etuvchi gulsimon va geometrik naqshlar tushirilgan. Chiroq Toshkent viloyati Bo'ka tumanidan topilgan. Bugungi kunda O'zbekiston tarixi davlat muzeyi arxeologiya fondining 120-kolleksiya to'plamida to'garak a'zolari tomonidan simob saqlashda foydalanilgan bir qancha simobko'zachalar saqlanmoqda. Ushbu simob ko'zachalarning ishlanish texnikasi hamda naqshlari turli tuman. Simobko'zachalar haqida M.E. Masson o'zining Toshkent viloyatida joylashgan qadimgi Qanqa haqidagi "Axangeran. Arxeologik-topografik

ocherki”da ma'lumotlar berib o'tadi, shuningdek I.T. Poslaviskiy tomonidan simobko'zachalarning bo'laklari eski Termizdan 10 farsah uzoqlikda joylashgan Ganchtepa yodgorligidan topilgan. Bu kolleksiyadagi 53 ta topilmaning faqat topilgan joyi yozilgan bo'lib, pasporti yozilmagan. Topilmalar naqshinkor chiziqlar bilan bezatilgan.

Muzeyga topshirilgan to'rt dona tarashlab yasalgan – “toshsanamlar” deb ataluvchi – haykalchalar hozirgi kunda № 68 raqami bilan saqlanayotgan, unchalik katta bo'lmagan turkiy davr haykallari kolleksiyasining shakllanishiga asos bo'ldi. Ulardan birini Sirdaryo viloyati gubernatori N.I. Grodekov Avliyo ota uezdida Aleksandrov tog' tizmasi etaklaridan topgan. Qolgan uchta esa 1896 yil avgust oyida Avliyo ota uezdida Merke hududiga tosh sanamlarni ilmiy o'rganish maqsadida safar qilgan I.V. Anichkov tomonidan keltirilgan.

To'garak a'zolarining tashabbusi va harakati bilan topilgan dasturxon – dumaloq, loydan ishlangan, uchta oyog'i bor yoki kosasimon oyoqli taglik muzeyga topshiriladi. Dasturxonning ichki yuza qismida dumaloq shtamp ko'rinishidagi – medal va boshqa naqshinkor belgilar bor. Toshkent muzeyining arxeologiya fondida TAHTning a'zolari tomonidan O'rta Osiyoning turli hududlaridan topilgan terrakota haykalchalaridan iborat uncha katta bo'lmagan kolleksiya tashkil etilgan. Ularning orasida Samarqand viloyati Urgut tumanida ot mingan chavondozi haykalchasi ham bor. Terrakota haykalchalari arxeologiya fondining 17 kolleksiya kitobigakiritilgan.

Muzeyga tashrif buyuruvchilarda yurtimiz hududida miloddan avvalgi VIII–II asrlarda yashagan saklarning bronza qozonlari kolleksiyasi katta qiziqish uyg'otadi. Ulardan biri–dastali qozon Issiqko'l tubidan topilgan. Yana biri Toshkentdan 40 chaqirim narida, Chinoz yo'lida topilgan. Keyingi uch qozonning esa ma'lumotlari keltirilmagan. Qozonlarning yoshi miloddan avvalgi V–III asrlar bilan belgilangan. Qozonlardan diniy marosimlarda va go'shtli ovqatlar tayyorlashda foydalangan.

TAHT tomonidan keltirilgan ashyolar orasida XI–XII asrlarga oid ajoyib bronza fonus; simob saqlash uchun mo'ljallangan simob ko'zachalar (120 dona) kolleksiyasi; asosiy qismi sirlangan sopol chiroqlar; O'rta Osiyoning turli hududlaridan topilgan, kuydirib pishirilgan sopol haykalchalar; g'isht shaklidagi me'moriy bezaklar, Samarqand, Termiz va boshqa shaharlarda xarobaga aylangan me'moriy yodgorliklardan terib olingan, sirlangan guldor (mayolika) va qadama naqsh (mozaika)li sopol lavhalar; ostadonlar; Saymalitosh qoyatoshidagi tasvirlar kolleksiyasi va boshqabuyumlarni qayd etib o'tish joiz.

1914 yilda muzeyga keltirilgan yirik buyumlar qatorida Buxoro shahridan 35 km janubi-g'arbda joylashgan Poykend vayronalarini qazish jarayonida topilgan arxeologik materiallar ham o'rin olgan. Bu yerda qazish ishlari 1914 yil bahor va yozida TAHT a'zosi L. A. Zimin tomonidan 26 kun davomida olib borilgan. Ushbu qazish ishlari samarasi o'laroq, Toshkent muzeyiga hozirgi kunda 178 sonli kolleksion ro'yxatga kiritilgan, IX – XII asrlarga oid turli xil arxeologik materiallar keltirildi. Topilmalar orasida o'yma naqshlar bilan bezatilgan suvdon shaklidagi idish alohida e'tiborni tortadi.

Arxeologiya fondining keyingito'ldirilishi O'rta Osiyoda arxeologik tadqiqotlarni tashkil etish hamda Turkistonning qadimgi yodgorliklarini o'rganish va saqlash maqsadida tuzilgan Turkkomstaris, Sredazkomstaris va Uzkomstaris kabi davlat tashkilotlarining tuzilishi va faoliyati bilan bog'liq. Bu tashkilotlar muzeyning arxeologiya bo'limini boyitishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Arxeologiya ishlarining keng quloqch yoyishida Turkiston o'lkasi Xalq komissarlari kengashining 1921 yil 31 iyuldagi Turkkomstarisga Turkiston Respublikasi hududlarida arxeologik ishlarni olib borish uchun mutlaq huquq beruvchi qarori muhim rol o'ynadi. Unga ko'ra arxeologik materiallarning ilmiy ishlanmalari 1921 yilda O'rta Osiyo Bosh muzeyi sifatida Turkkomstaris ixtiyoriga o'tkazilgan muzeyda to'planishi belgilangan. 1921–1924 yillarning o'zidayoq O'rta Osiyo Bosh muzeyi bir qator arxeologik ekspeditsiyalar uyushtirdi. Mazkur ekspeditsiyalar davomida to'plangan O'rta Osiyo moddiy madaniyati tarixi bo'yicha topilmalar O'rta Osiyo Bosh muzeyi arxeologiya fondini to'ldirdi.

1923 yildan Turkkomstarisda atoqli arxeolog M.Ye. Masson o'zining samarali faoliyatini boshladi. Samarqand shahridan uni Toshkentga, O'rta Osiyo Bosh muzeyi arxeologiya bo'limi mudiri lavozimga o'tkazishdi. M.Ye. Masson muzeyda 1929 yilga qadar ishladi. Arxeologiya bo'limi faoliyatini tashkillashtirish, arxeologik va numizmatik kolleksiyalarning boyitilishi va ularning qayd etilishida uning xizmatlari katta bo'ldi. Arxeologiya bo'limining arxeologiya va numizmatika qayd kitoblarida 1924–1929 yillar davomida olim tomonidan kalligrafik husnixat\* bilan yozilgan bitiklar hozirgacha saqlanib qolgan.

Arxeologiya fondining tarkib topishi va saqlanishida yana bir tashabbuskor tadqiqotchi Turdi Mirg'iyosovich Mirg'iyosov (1896–1951 yy.)ning xizmatlari beqiyos. Mustaqil yetishgan arxeolog, ajoyib o'lkashunos va muzey xodimi, bir necha tillar va shevalarni chuqur o'zlashtirgan mutaxassis muzeyda 1926 yilning 6 fevralidan boshlab, chorak asrdan ko'p vaqt ishladi. 1924–1929 yillarda Turdi Mirg'iyosov M.Ye. Masson boshqargan

muzei arxeologiya bo'limining ekspeditsiya va kolleksiya to'plash ishlariga faol kirishdi va barcha ekspeditsiyalarda rahbarning yordamchisi va yo'ldoshiga aylandi. T.M. Mirg'iyosov dunyo miqyosida ahamiyatga molik bo'lgan bir qator arxeologik kashfiyotlarning guvohi va ishtirokchisiga aylandi. U boshqa bir qator olimlar – Ya.G'. G'ulomov, A.Yu. Yakubovskiy, V.A. Shishkin, A.I. Terenojkin bilan ham birga ish olib bordi. Turkkomstaris 1925 yilning 15 yanvarida O'rta Osiyo muzei ishlari hamda qadimiy yodgorliklar, san'at va tabiatni qo'riqlash (Sredazkomstaris) qo'mitasi sifatida qayta tashkil etildi. Shu sanadan boshlab, O'rta Osiyoning o'tmish tarixini istiqbolli o'rganish, xususan, arxeologiya sohasini rivojlantirishda yangi bosqichga qadam qo'yildi.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Xulosa qilib aytganda, XIX asrning birinchi choragida yurtimizda mahalliy olimlarimizning rus olimlari bilan o'tkazgan ilmiy tekshiruvlari, shu jumladan arxeologik qazishmalari natijasida mingyillik tariximizga dalil bo'la oladigan bir qancha noyob topilmalar topildi va Toshkent muzeyiga topshirilgan. Bularning orasida bugungi kunda muzeyning eng noyob eksponatlari deb hisoblanayotgan arxeologik topilmalarning bazilari aynan shu davrda topilgan. XX asrning birinchi choragini arxeologiya sohasining birinchi RENESSANSi deb atash mumkin. chunki bu davrda o'lkamiz birinchi marta arxeologik jihatdan keng qamrovli o'rganila boshlandi. Qadimgi manzilgohlar aniqlandi, qazish ishlari olib borildi va to'plangan topilmalar ilmiy jihatdan o'rganildi. Bundan tashqari M.E.Masson o'zining arxeologiya maktabiga asos soldi. Bu o'z o'rnida yurtimizda arxeologiya sohasining rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qildi. Bugungi kunda ham ushbu arxeologik topilmalar muzeyga tashrifchilarda alohida qiziqish o'yg'otmoda.

### **ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. Masson M.E., Oxangeron. Arxeologik va topografik eskiz. T.: 1953 yil.
2. Masson M.E., O'rta Osiyo qabr qayraklari. 1956 yil.
3. Sodiqova N. O'zbekistonda muzei ishi. T., Fan. 1975 yil.
4. Uzbekiston tarixi davlat museums and birinchi qims / archeology van numismatics.
5. Levteeva L., Minasyants V. O'tgan davrlar aks-sadosi. T., 2017 yil.
6. Lunin B.V. Turkistondagi rus sharqshunosligi va arxeologiyasi tarixidan. / Turkiston arxeologiya ixlosmandlari to'garagi. 1895–1917 yillar T., 1958 yil.
7. O`zbekiston tarixi davlat muzei / archeology van numismatics.



8. Lunin B.V. Samarqandiy qadimiy Mirzo Buxoriy // O'NU. 1963 yil.
9. Levteeva L., Minasyants V. O'tgan davrlarning aks-sadolari. T., 2017 yil.
10. Bartold V.V. 1893/1894 yillarda O'rta Osiyoga ilmiy maqsadda qilgan sayohati haqida ma'ruza. Ishlar. T. 1U. M., 1906 yil.
11. Lunin B.V. Turkistondagi rus sharqshunosligi va arxeologiyasi tarixidan. / Turkiston arxeologiya ixlosmandlari to'garagi. 1895–1917 yillar T., 1958 yil.
12. Levteeva L., Minasyants V. O'tgan davrlarning aks-sadolari. T., 2017 yil.